



SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Abdujabborov Abdurauf

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-0165-3230

abdujabborovabdurauf79@gmail.com

PhD Kayumova Mexribonu

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-1966-9287

kayumovamexribonu@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz hozigi iqtisodiy davrda sun'iy intellekt bizning qaysi iqtisodiy sohalarimizga kirib boradi va unga qanday ta'sir ko'rsata olishini o'rganib chiqamiz. "Sun'iy intellekt (SI) texnologiyasining rivojlanishi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir qiladimi yoki salbiy ta'sir qiladimi?" degan savollarga imkon qadar javob olamiz.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI, ta'limda sun'iy intellekt, "soft skills", "hard skills", AI texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА СОВРЕМЕННУЮ ЭКОНОМИКУ

Абдуджабборов Абдурауф

Ташкентский государственный экономический университет

PhD Каюмова Мехрибону

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье мы исследуем, в какие области нашей экономики проникает искусственный интеллект и как он может повлиять на нас в текущую экономическую эпоху. Окажет ли развитие технологий искусственного интеллекта (ИИ) положительное или отрицательное влияние на экономику? Мы постараемся ответить на ваши вопросы как можно лучше.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ИИ, искусственный интеллект в образовании, "soft skills", "hard skills", роль AI технологий в экономике.

IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON MODERN ECONOMICS

Abdujabborov Abdurauf

Tashkent State University of Economics

PhD Kayumova Mekhribonu

Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, we will explore which economic areas in which artificial intelligence penetrates and can influence it in the economic era. Does the development of artificial intelligence (SI) technology positively affect or negatively affect the economy? We get as many answers as possible to the questions.

Keywords: artificial intelligence, AI, artificial intelligence in education, soft skills, hard skills, role of AI technology in economics.

Kirish.

“Sun’iy intellekt hayotimiz va ish uslubimizni o’zgartiradi, lekin u yangi sohalar va ish o’rinlarini ham yaratadi” (Sundar Pichai – Google bosh direktori).

AI (Artificial Intelligence o’zbekchasi – sun’iy intellekt) texnologiyasi hozirgi XXI asrning eng dolzarb mavzularidan biri bo’lib hisoblanib kelmoqda. AI texnologiyasini yaratgan insonlar aynan bu soha iqtisodiyotga qanday ijobiy ta’sir ko’rsata olishini ko’rsatib bera oldi. Bu aynan to’g’ri fikrlardan edi. Hozirda qaysi rivojlangan davlatni qaraydigan bo’lsak, iqtisodiy sohasi va texnologiyalardan ya’ni zamonaviy, zamon bilan hamnafas bo’lgan texnologiyalardan samarali va oqilona foydalangani sababli ham birinchilikni yuqori pog’onalarda olib ketmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi zamonni va undagi insonlardan oqilona foydalanishni o’rgatadi. Shu jumladan kuch qudrat ham yuqori pog’onadagi shaxslarda bo’ladi.

Sun’iy intellekt iqtisodiyotning ko’pgina sohalariga bir lahzada kirib keldi. U o’zining foydalanuvchilariga juda ko’p qulayliklar yaratadi va e’tiborini o’ziga qarata oladi. Ta’limda, mehnat bozorida, iqtisodiy ko’pgina sohalarida bu o’z aksini topadi. Agar biz ta’limdagi o’rnini o’rganadigan bo’lsak, undagi yutuqlari bilan bo’lishsak, unda qanday afzalliklarini to’g’ri yo’nalish bilan ko’rib chiqa olsak, shu jumladan ta’limdagi o’rni iqtisoddagi o’rnini ko’rsatib bera olsak bu soha rivojlanishi uchun hamma birdek harakat qilsa, ana shunda hayotimizda rivojlanish zamon bilan birdek hamnafas bo’lish hissini o’zimizda his etgan va bilgan bo’lar edik.

Adabiyotlar sharhi.

Sun’iy intellekt va mustaqil ta’lim integratsiyasiga bag’ishlangan ilmiy adabiyotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qanday ta’sir ko’rsatishi haqida turli yondashuvlarni ilgari surmoqda.

Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi bo’yicha global tajribalarni o’rganib, uni Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti misolida o’z natijalarini taqdim etadi. Shaxsiylashtirilgan o’quv tizimlarining o’quvchilar bilim darajasi, motivatsiya va ta’lim jarayonidagi natijalarga ta’siri statistik ta’sir asosida baholanadi. Talabalarda bir qator tajribalarni o’rganib uni statistik tahlil qilgan holatda batafsil o’z maqolasida ko’rsatib beradi (Kayumova, 2025).

Sun’iy intellektning global iqtisodiyotga ko’p qirrali ta’sirini o’rganib, AI sanoatni qanday o’zgartirayotganini, mehnat bozorlariga ta’sir qilishini va innovatsiyalarni boshqarishni o’rganadi. Bandlik va iqtisodiy o’sish bilan bog’liq natijalarni muhokama qiladi. Korxonalar AI potensialidan foydalanishi va muammolarini hal qilish bo’yicha xulosa va takliflarini berib o’tadi (Kadirov, 2025). AI ni iqtisodiy foyda keltiruvchi omillari shu jumladan biznes va undan tashqarida qo’llashning samaradorligi va ko’plab foydalari haqida bir qator ma’lumotlar berib o’tgan (Raxmatova, 2022).

O’z tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining O’zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya jarayonini o’rganib, uning muammolarini va istiqbollarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqoti AI asosidagi moslashuvchan ta’lim tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va tavsiyaviy tizimlarni joriy etish bo’yicha muhim xulosalarni o’z ichiga olgan (Amonov va Yo’ldoshev, 2022).

O’z tadqiqotlarida mamlakatlarning AI sun’iy intellekt tizimi kirib kelgandan keyin ishsizliklar soni va ularni qayta ishga tayyorlash uchun yetarlicha malakali kadrlar kerakligi haqida to’liq to’xtalib o’tgan va bu mavzuni yoritib bergan. Sun’iy intellekt tizimi kirib kelsa mamlakatda qanday o’zgarishlar yuz berishi haqida global miqyosda o’rganib tahlil qiladi (Haider, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining mustaqil ta’lim jarayoniga ta’sirini baholash va optimallashtirish imkoniyatlarini o’rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlar qo’llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ta'lim sharoitida har xil yo'nalishlar bor. Bu inson omilini hamma yo'nalishda birdek rivojlantirish qiyin bo'lganidek, ta'lim sohasida sun'iy intellektdan to'g'ri ko'zlangan maqsad bilan foydalanib joriy etsak va u shu soha rivojlanib o'zini oqlay olsa, talabalarni bilimlarida yetarlicha o'sishni ko'rsata olsa ya'ni ijobiy qabul qilinsa, bu soha rivojlanishi bilan bir qatorda boshqa sohalar ham asta sekinlik bilan rivojlanib boradi deb o'ylaymiz. Chunki aynan ta'lim sohasi boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Agar unga biz bor mehrimiz bilan rivojlantirsak, unda yetishib chiqqan malakali kadrlar keyinchalik boshqa sohalarni qamrab olib, o'sha sohalarda o'zini ko'rsatadi.

Shunday qilib, sekin sekinlik bilan rivojlanib boriladi. Alisher Navoiyning "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur" fikri ham aynan shu uchun aytilganidek go'yo. Ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, AI texnologiyasidan hamma foylanishi zarur. Hamma uchun birdek ijobiy ta'sir qilmasligi ham olimlar tomonidan ko'rib o'tilgan. Lekin rivojlantirib borilsa, statistikalariga qaraganda ko'pchilik uchun ta'lim olish sohalarida yaxshi o'zgarish bo'la olar ekan. Talabalar uchun yetarlicha to'g'ri, ijobiy, samarali va adolatli bilim berilishi uchun ham texnologiya va undagi o'zgarishlarni rivojlanishi muhim.

TDIU dotsent v.b., PhD Mexribonu Kayumova ham o'zining "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari yordamida ta'lim jarayonini moslashtirish" maqolasida buni aniq tahlillar va tadqiqotlar yordamida ko'rsatib o'tgan. Aytilishi kerak bo'lgan fikrlar qatoriga qo'shib qo'ygan bo'lardikki talabalar faqat bilim qabul qilib oluvchi emas balki shu bilimlarni tashkil qilishda bevosita ishtirokchi ham sanaladi. Chunki bir katta bir kichikdan ta'lim olish kerak, agar to'g'ri fikr bo'ladigan bo'lsa. Har bir o'qituvchi va talaba o'zaro hamkorlikda ish olib boradi. O'zaro bilim, tajriba, malaka almashinuvi vujudga keladi. Hamkorlik va o'zaro xurmat bo'lgan joyda o'sish bo'ladi. Eshitish bo'lishi kerak, bevosita eshitilmay qolgan fikrlar ba'zida katta natijalarni erishilmay qolishiga sababchi bo'ladi.

Hozirda soft skills va hard skills haqida turli xil fikrlar mavjud. Soft skillsning hard skillsga qaraganda yuqori o'rinda turishiga sababchi bo'lgan omillardan biri bo'lishiga sabab sun'iy intellektning rivojlanishi bo'la oladi. Xususan jamoaviy qobilyatlarimiz qanchalik kuchli bo'lsa, o'zaro ishlay olish sifatimiz ham kuchli bo'ladi. Fikrimizni davom ettirib, jamoaviy ishlash uchun sun'iy intellekt va zamonaviy dunyo texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradigan bo'lsak sog'lom hayot tarzini rivojlantigan bo'lamiz. Hard skills ko'nikmalari jamoaviy ishlarda ancha qo'l keladi va u jamoada rivojlanadi. Umuman olganda fikrlarimizni jamlab aytadigan bo'lsak soft skills va hard skills ko'nikmalariga e'tibor berilgani kelajakda talabalarni mustaqil fikrlay oladigan, kreativ yondashib o'z sohasini rivojlantirishga hissasini qo'sha oladigan kadr bo'lib yetishishiga turtki bo'ladi.

Soft skillsning hard skillsdan ustun turishi bu bizning odob-axloq ko'nikmalarimizning qanchalik yaxshi rivojlanganini ko'rsatib beradi. Olimlarimizga ham e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ularda ham soft skillsning aynan rivojlanganini ko'rishimiz tabiiy. Ulardan o'rnak olishimizning bosh sabablaridan biri ham shudir. Mehnat bozorida ham ijtimoiy va iqtisodiy odob-axloqi yaxshi rivojlanishi umumxalqimizning mehnat bozori oldiga qo'ygan talablarga mos kadr bo'lib yetishishiga sababchi bo'ladi.

Sun'iy intellektning boshqa sohalarga kirib borishi yetarlicha ishchi o'rni kamayishiga va yangi ishchi o'rni ochilishiga sabab bo'ladi. Masalan, ko'pgina sohalarda hozirda AI ni qo'llaydigan bo'lsak, o'zinikini o'tkazish, tarafkashlik, korrupsiya va bir qancha shunga o'xshash bemas'uliyat ishlarning kamayishiga asosiy omil bo'ladi. Keyinchalik balki bu bizning mafkuramizga juda katta ta'sir qiladigan ishlarning yo'q bo'lishiga va qaytib putur yetkazmasiligiga olib keladi. Bu shunchaki yuqoridan qaralgan eng asosiy narsalar bo'ladi. Agar chuqurroq qarab fikr qiladigan bo'lsak mayda mayda ko'zga ko'rinmaydigan kamchiliklar yopilib ketadi.

Biz aytadigan fikrlar qatoriga yana kiritishimiz kerak: texnologiyalar rivojlanganidek insonlar ham shu texnologiyalarni o'rganib ular bilan chambarchas bog'liq bo'lib rivojlanishda

davom etsa, ishsizlik kamayishi o'rniga bir muncha mo'tadil turgan bo'lar edi. Albatta AQSh, Xitoy, Yaponiya, Kanadalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xulosa qilib aytsak, Dunyoning rivojlanishi odamlarning bilim ortidan harakat qilib qadam tashlayotganidan dalolat beradi. Bilim esa insonlarning inson bo'lib his qilishi va o'zini anglab yetish omillarini anglatadi.



1-rasm. AI texnologiyasining rivojlanishiga misol rasmi

Mistral (Mistral AI- bu 2023-yilda Fransiyada tashkil etilgan sun'iy intellekt (SI) sohasidagi startup bo'lib, asosiy e'tiborni ochiq kodli katta til modellari (LLM) yaratishga qaratadi.) bosh direktori Atur Menshning ta'kidlashicha, o'zlarining sun'iy intellekt tizimlarini yaratmagan davlatlar boshqa mamlakatlar pul oqimini xavf ostiga qo'yishadi. U yana sun'iy intellektni elektr energiyasining paydo bo'lishi bilan taqqoslagan fikrida shunday degan ekan. "100 yil oldin agar siz elektr zavodlarini qurmagan bo'lsangiz, uni qo'shnilaringizdan sotib olishga o'zingizni tayyorlagan edingiz, oxir oqibat, bu juda yaxshi emas, chunki u ba'zi qaramliklarni keltirib chiqaradi."

2023-yilda Mistral kompaniyasiga asos solgan Mensh Nvidia bosh direktori Jensen Huang bilan suveren sun'iy intellektga yo'naltirilgan epizodda paydo bo'ldi. Ikki bosh direktor har bir mamlakat milliy sun'iy intellekt strategiyasini topishi va o'zining sun'iy intellekt imkoniyatlarini yaratishi kerakligi haqida kelishib oldilar, chunki texnologiya keng miqyosda, jumladan, davlat xizmati, qishloq xo'jaligi va mudofaa sohalarida qo'llaniladi. Huang bundan oldin ham xuddi shunday izohlar bergan, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri hukumat amaldorlariga.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'zining sun'iy intellekt tizimini yaratishi va uni takomillashtirishi darkor. Albatta bu tizim o'zining milliy qadriyat va an'analariga mos ravishda muayyan qolib va filtrdan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Asosiy xulosa qilib shuni ayta olamizki, rivojlanish bor joyda o'sish, muayyan va turli inqiloblarga tayyor turish ko'nikmalari shakllanadi. Strategiyaning qanchalik kuchliligi oldimizda turgan sanoat va iqtisodiy inqiloblardan eson omon chiqish salohiyatini yaratadi. Bunda o'zlarida bor texnologiyalarning barcha sohalaridan va o'zida bor narsalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalarni yaratadi. Sun'iy intellekt kelajakdagi bir qancha o'zgarishlarga olib keladi. Deyarli barcha sohaga kirib bora oladi va bunda o'ziga yarasha turli qiyinchiliklar, sinovlar, yo'qotishlar bo'ladi. Iqtisodiyotda ma'lum bir yaxshiroq narsaga erishish uchun ba'zi narsalarda ya'ni uni o'rnini bosa oladigan narsalardan kechish iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

Amonov, S., Yo'ldoshev, I. (2023) *Sun'iy intellekt texnologiyalarining O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyasi: imkoniyatlar va muammolar*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, – 102 b.

Haider, Z., & Fang, W. (2024). The Impact of Artificial Intelligence on Economic Development. *Journal of Emerging Business and Digital Economy*. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/jebde-10-2023-0022/full/html>

Kayumova M. (2025) "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari yordamida ta'lim jarayonini moslashtirish". <https://journal.nordicuniversity.org/article/raqamli-texnologiyalar-va-suniy-intellekt-vositalari-yordamida-talim-jarayonini-moslashtirish>

Qodirov, M. (2023). Sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli va imkoniyatlari. *Cyberleninka.ru*. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellektning-iqtisodiy-samaradorlikni-oshirishdagi-rol-i-va-imkoniyatlari>

Raxmatova, D. (2022). Sun'iy intellekt: iqtisodiyot va bandlikka ta'siri. *Infocom.uz*. <https://infocom.uz/articles/suniy-intellekt-iqtisodiyot-va-bandlikka-tasiri>

To, C. (2021). idrokli mashinalar texnologiyalari va ularni o'rganish sohasi. [online] *Wikipedia.org*. Available at: https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt

Xasanov, U. (2023). Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotga ta'siri. *Pedagoglar.org*. <https://pedagoglar.org/04/article/download/4754/4331>

yuz.uz (2023). Sun'iy intellekt: muammo va echimlar. [online] <https://yuz.uz>. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt-muammo-va-echimlar>